



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

Elbek Dusanov

Navoiy viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish
hududiy markazi o'qituvchisi

INTERENETDA VIRTUAL MULOQOTNING O'SMIR PSIXOLOGIASIGA TA'SIR ETISH MEXANIZMLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada kompyuter o'yinlariga tobe o'smirlar muammosi yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarining natijalari va kompyuter o'yinlari oqibatida o'smirlar xulqida paydo bo'ladigan salbiy sifatlar va ularni oldini olish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar. Agressiv xulq, axborot-psixologik, xavfsizlik, virtual, kompyuter o'yinlari, emotsional, tafakkur, tashxis, ong.

Аннотация. В этой статье показаны результаты проведенных научно-исследовательских работ по проблеме зависимости подростков к компьютерным играм и отрицательных качествах, возникающих в поведении в результате этих игр и даны рекомендации по их предупреждению.

Ключевые слова. Агрессивное поведение, информацион-психологик, безопасность, виртуальные, компьютерные игры, эмоциональный, мышление, диагностика.

Bugungi kunda axborot texnologiyalari shiddat bilan yoyilmoqda. Internet kun sayin har bir tashkilot, ijtimoiy muassasa, o'quv yurtlari, xonadonimizga kirib kelmoqda. Respublikamizda internetdan foydalanuvchilar soni hatdan tashqari yoshlar hisobida ortib bormoqda. Umumjahon miqyosida olganda ham bu miqdorni sezish mumkin. Ko'pchilik

yoshlar hayotiy tasavvurga etarlicha ega bo'lmasa-da, ammo axborot vositasiga aylanib qolmoqda. Bu taajjubsiz holatki, chunki yoshlar o'zlariga referat yoki kurs ishi izlab, musiqa eshitish, o'ziga yoqqan kitobni sotib olish yoki forum mavzularini jonli mushohadalarida ishtirok etish orqali internetga kirib bomoqdalar. Internet ta'lim olish, dam olish yoki do'stlar bilan muloqot qilishning ajoyib va foydalasi vositasi bo'lishi mumkin. Ammo hayotga real ko'z bilan qaraydigan bo'lsak, tarmoq o'z o'rnida xavfdan ham xoli emas: uning ham o'ziga xos bezoriligi, jinoiy olami, zarari va nomaqbullik tomonlari mavjud. Virtual muloqot insonlarga bolalarga zarar keltiruvchi manba bo'lib qolishi ham hech gap emas. Oxirgi paytlarda internetda ko'pgina tajovuzkor va ijtimoiy xavfli materiallar paydo bo'lib qolmoqda. Katta yoshdagilar bolalarni ushbu xavflardan asrash uchun internetdan foydalanishlariga e'tibor qaratishlari muhimdir.

Bugungi kunda 600 millionga yaqin kompyuterdan foydalanuvchilar haqida so'z borayotgan bir sharoitda uning miqdori 1 milliardga etishi ham shubhasiz. Kompyuterdan faqat ishchi o'rinlarida emas, balki maishiy turmush masalalari, xonadonda va dam olishda ham keng foydalanilmoqda. Bular orasida shaxsiy kompyuterdan tashkilotlardan ko'ra xonadonda foydalanishi ko'p hajmni tashkil etmoqda. Bu xalqaro an'anaga aylangan holat bo'lib, bizning mamlakatimizni ham chetlab o'tmaydi. Fomicheva Yu.V. o'tkazgan tadqiqoti ham «kompyuter» guruhidagilarning motivatsiya sohasida yuqoriroq ko'rsatkichga egaligini aniqlagan. Kompyuter o'yinlarini o'ynayotganda o'smir o'z qobiliyatini, imkoniyatlarini va kamchiligini anglay boshlaydi. Bu o'smir shaxsini va qat'iy «Men» obrazini shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi¹. Axborot texnologiyalardagi taraqqiyot yoshlarimizni, o'sib kelayotgan avlodni uchun yangi qirralarni ochilishiga imkon bersa-da, undan foydalanishning ham o'ziga xos muammolari mavjud. Bolalar internetdan foydalana turib yovuz niyatli odamlarga duch kelib qolmoqdalar. Internetdagi noma'lum kishi bilan muloqot ishonchli va do'stona munosabat o'rnatishga imkon yaratadi. Jinoyatchi ushbu afzallikdan foydalangan holda tajribasiz yoshlarni o'ziga bog'lab olmoqda. Siz farzandingizni interetdagi xavfdan asray olasiz, qaysiki uni tarmoqdan qanday foydalanayotganligini nazorat qila olsangiz. Jinoyatchilar bolalar bilan chatda lahzali axborotlar almashtirishda, elektron pochta yoki forumlardan foydalanib aloqa o'rnatish ustunligiga erishmoqda. Ko'pgina o'smirlar o'zlarini muammolarini hal etish uchun konferensiyaga murojaat etadilar. Yovuz niyatli kishilar esa bundan foydalangan holda, ularga mehribonlik, g'amxo'rlik ko'rsatish va sovg'alar berish orqali o'smirlarni e'tiborini o'ziga qaratib olmoqda.

O'smirlar muammosiga e'tiborni kuchaytirish zarurligining asosiy sabablari:

1) fan va texnika rivojlanishi natijasida madaniyat, san'at va adabiyot, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarning o'zgarayotgani;

¹ Фомичева Ю.В. «Психогический каорелаты увлеченности компьютерными играми» // Вестник МГУ. Психология. 1991г., №3.

2) ommaviy axborot tizimining kengayishi tufayli o'smirlar ongliligi darajasining ko'tarilgani;

3) o'g'il va qizlarning dunyo voqealaridan, tabiat va jamiyat qonunlaridan, tarixdan yetarli darajada habardorligi;

4) ularning jismoniy va aqliy kamoloti jadallashgani;

5) o'smirlar bilan ishlashda g'oyaviy-siyosiy, vatanparvarlik va baynalminal tarbiyaga alohida yondashish zarurligi;

6) o'smirlar uchun mustaqil bilim olish, ijodiy fikr yuritish, o'zini o'zi boshqarish, anglash, baholash va nazorat qilishga keng imkoniyat yaratilgani.²

Shuningdek, ular yoshlar yoqtiradigan va qiziqadigan yangi hamda zamonaviy musiqalarni yaxshi o'zlashtirib olganlar. Ular o'smirlar muammosini tinglaydi va ularga hamdard bo'ladi. Yovuz niyatli kishilar sekin-astalik bilan suhbat mavzusiga shahvoniy (seksual) tus berib boradi yoki erotik mazmundagi materiallarni ochiqdan ochiq namoyish etib boradilar. Bu orqali o'smirlarning axloqiy taqiblarini susaytirib boradi. Ayrim jinoyatchilar esa suhbat mavzusini birdaniga shahvoniy mavzuga bag'ishlaydilar va o'smirlarni kechinmalarini o'zlariga bog'lab olishga erishadilar. Shuningdek, jinoyatchilar o'smirlar bilan real kundalik turmushda uchrashish imkoniyatini ham baholashga erishadilar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yoshlarni tarbiyalash uchun quyidagilarga alohida e'tibor qaratishimiz lozim: Farzandingiz ko'p vaqtini internetda chatda uy xonalari eshigini bekitib olib nima bilan mashg'ul ekanliklarini yashiradigan ko'pgina bolalar internet jinoyatchiligi tuzog'iga tushib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Белинская Ye.П. К обоснованию соцкультурного подхода в исследованиях виртуальной реальности. [http/ www. Ish. Ru. /info/ seminar-doc](http://www.Ish.Ru./info/seminar-doc) (1) doc.
2. Библиотека практической психологии «Психология зависимости» Минск. 2004г
3. 1.Аестова О. Н, Бабанин Л.Н, Войскунский А.Е. Специфика психологических методов в условиях использования компьютера. М: МГУ 1995.

² G'oziyev E. Ontogenez psixologiyasi: nazariy eksperimental taxlil. – Toshkent: Noshir. 2010, 176 bet.